

INKLYUZIV TA'LIM: ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Ne'matullayeva Ruxshona

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ped.1.25-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mohiyati, uning zamonaviy pedagogikadagi o'rnini va ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etiladi. Maqolada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablariga integratsiya qilishning afzalliklari, mavjud muammolar va O'zbekiston sharoitida tizimni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, pedagogika, psixologiya, integratsiya, maxsus ehtiyojli bolalar, individual yondashuv.

Annotation: This article examines the essence of inclusive education, its role in modern pedagogy, and its theoretical foundations. The article analyzes the advantages of integrating children with special educational needs into mainstream schools, existing challenges, and promising directions for developing the system in the context of Uzbekistan.

Keywords: inclusive education, pedagogy, psychology, integration, children with special needs, individual approach.

Аннотация: В данной статье исследуется сущность инклюзивного образования, его роль в современной педагогике и научно-теоретические основы. В статье анализируются преимущества интеграции детей с особыми образовательными потребностями в общеобразовательные школы, существующие проблемы и перспективные направления развития системы в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: инклюзивное образование, педагогика, психология, интеграция, дети с особыми потребностями, индивидуальный подход.

Inklyuziv ta'lim — bu har bir bola, uning jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy holatidan qat'i nazar, teng imkoniyatlar asosida ta'lim olish huquqiga ega ekanligini ta'minlaydigan yondashuv hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim orqali biz har bir bolani ta'limdan chetlashtirmagan holda ta'limga qamrab olishimiz mumkin. Inklyuziv ta'limda biz faqatgina imkoniyati cheklangan bolalar bilan emas, balki alohida ta'limga ehtiyoj bo'lgan, ya'ni o'z tengdoshlaridan oldinda bo'lgan iqtidorli bolalarni ham qamrab olishimiz mumkin. Bu orqali esa har bir bola o'z salohiyatini erkin namoyish eta oladi. Biz inklyuziv ta'limni har tomonlama tahlil qilib ko'rishimiz mumkin. Asosiy tushuncha sifatida: "Inklyuziv ta'lim bu- har bir bolani individual qobiliyatlarini va ehtiyojlarini inobatga olgan holda teng huquqlilik asosida ta'lim berish hisoblanadi. Insonparvarlik huquqlari jihatdan esa har bir bolaga insonparvarlik tamoyili asosida ta'lim berish tushuniladi. Ijtimoiy jihatdan esa tahlil qiladigan bo'lsak, jamiyatda bolalar orasida tenglik, hamjihatlik, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarlarni shakllantirish uchun zamin yaratib bera oladi.

Inklyuziv ta'limning ilmiy ildizlari L.S. Vigotskiyning "ijtimoiy kompensatsiya" nazariyasiga borib taqaladi. Uning fikricha, boladagi nuqson ijtimoiy muhit orqali korreksiya qilinishi lozim. Ya'ni bunda boladagi nuqson va kamchiliklar ijtimoiy muhitdagilar, atrofidagi, jamiyatdagi kishilar orqali to'g'irlanishi mumkin. Shuningdek, YuNESKOning "Salamanka deklaratsiyasi" (1994) va BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi xalqaro huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonlik olimlardan D. Nurkeldiyeva va M. Ayupovalar o'z tadqiqotlarida milliy maktablarda inklyuziv muhit yaratishning metodik jihatlarini tahlil qilganlar. Bunda ular har bir bola bilan individual ishlashni, oila, ota-ona va maktab, mahalla

hamkorligini ta'minlay olish zarurligini aytib o'tishgan. Shu orqaligina esa ijtimoiy-psixologik jihatdan bolalarni qo'llab quvvatlashga erishish mumkin. Shuningdek, logopedik va defektologik xizmatlarni rivojlantirish muhimligini ham ta'kidlab o'tishgan.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida olib borilayotgan son-sanoqsiz islohotlar bilan birgalikda inklyuziv ta'limga ham e'tibor berib borilayapti. Lekin shunga qaramasdan maktablarning moddiy-texnik bazasini yaratish, maktab sharoitini inklyuziv ta'limga moslashtirish, bu soha uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish asosiy vazifa bo'lib qolmoqda. Ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar inklyuziv ta'limni chetlab o'tayotgani yo'q va bu esa O'zbekiston Respublikasida teng huquqlilikka, bag'rikenglikka va shuningdek, insonparvarlik tamoyiliga yuksak fazilat sifatida qaralishi deb olsak aslo mubolag'a bo'lmaydi, deb hisoblayman.

Maktablarda moddiy-texnik bazani shakllantirish zarur. Ularni imkoniyati cheklangan bolalar uchun liftlar, panduslar, maxsus uskunalar, o'quv jihozlari bilan ta'minlash zarur hisoblanadi. Pedagogik kadrlarni tayyorlash uchun esa turli xil kurslar ham tashkil etilgan va buni yoshlar orasida ko'proq targ'ib qilinishi lozim. Shuningdek, bu faoliyatda ya'ni, inklyuziv ta'limni maktab hayotiga integratsiya qilish uchun jamiyatdagilar va inklyuziv ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning sinfdoshlarining ham psixologik tayyorgarligi bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Chunki imkoniyati cheklangan bolalar o'zlarini ular bilan teng huquqli his etishlari lozim. Ular uchun qulay o'quv muhitini yaratish asosiy o'rinda turadi. Bu ikki tomonlama amalga oshiriladi: Birinchisida kerakli jihozlar bo'lsa, ikkinchisida atrofdagi sinfdosh o'rtoqlari, ota-ona va ustozlari orqali. Shundagina inklyuziv ta'limdan ko'zlangan natijaga erisha olamiz.

Biz zamonaviy pedagogikada bolani ta'limga emas, balki ta'limni bolaga moslashtirishimiz muhim hisoblanadi. Bunda bolaning ehtiyojlarini, qiziqishlarini inobat olgan holda ta'limga yo'naltirsak jamiyatimizda salohiyatli kadrlar ko'payadi.

O'zbekiston Respublikasi inklyuziv ta'limni rivojlantirish istiqbollari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

Bunda bir necha yo'nalish orqali bu jarayonni tashkil etishimiz mumkin. Masalan, bu jarayonda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini misol qilib olishimiz mumkin. Har bir pedagog tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida talablarga inklyuziv ta'lim metodikasini o'rgatish va alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan bolalar bilan ishlay olish ko'nikmasini shakllantirish zarur. Shu tufayli esa faqatgina defektologlar emas, balki oddiy sinf o'quvchilari ham bunday bolalar bilan ishlay oladilar. Istiqboldagi navbatdagi vazifa esa maktabni inklyuziv ta'lim uchun moslashtirib jihozlash hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda inklyuziv ta'lim dasturlarini ishlab chiqish lozim. Bu orqali inklyuziv ta'lim olayotgan o'quvchilarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishi kuzatib boriladi. Bu esa ota-onalar, o'qituvchi va psixolog o'rtasidagi hamkorlikni tizimlashtiradi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inklyuziv ta'lim — bu shunchaki o'qitish uslubi emas, balki jamiyatda insonparvarlik va teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishning asosiy omilidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolani ta'lim tizimiga moslashtirishdan ko'ra, ta'limni bolaning ehtiyojlariga moslashtirish ijobiy natija beradi. Inklyuziv muhitning shakllanishi nafaqat alohida ehtiyojli bolalarning, balki barcha o'quvchilarning bag'rikeng, mas'uliyatli va insonparvar bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
2. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Salamanca, 1994.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga inklyuziv ta’lim tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror, 2021.
4. Nurmuhamedova L. Inklyuziv ta’lim asoslari. Toshkent, 2020.